''TASDIQLAYMAN''

''Ozmilliybank'' AJ Uchtepa bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi

_____ I.Yakubov

"01" aprel 2026-yil

"O'zmilliybank" AJ Uchtepa BXM binosida Uchtepa tumanida faoliyat ko'rsatayotgan mijozlar bilan tashkil qilingan uchrashuv yuzasidan ____-sonli yig'ilish

BAYONI

01 aprel 2026-yil **Uchtepa tumani**

Raislik qiluvchi: - **I.Yakubov** – "O'zmilliybank" AJ Uchtepa bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi.

Ishtirok etuvchilar **T.Abdukarimov**-"O'zmilliybank" AJ Uchtepa bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi o`rinbosari

Taklif etilganlar Uchtepa tumanida faoliyat yuritayotgan tadbirkor mijozlari

Uchtepa tumanida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari bilan uchrashuv bo'yicha:

(I.Yakubov, T.Abdukarimov)

Yig'ilishni "O'zmilliybank" AJ "Uchtepa" Bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi I.Yakubov ochib, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan oddiy aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratib berilayotganligi, bunda joylardagi mavjud ishsizlarni ish bilan ta'minlash va kambag'al oilalarning oila daromadini ko'tarish orqali kambag'allik ro'yxatidan chiqarish eng oliy maqsad ekanligi, bu borada tuman xokimliklari hamda tijorat banklari tomonidan ularni qo'llab quvvatlash borasida bir qator tizimli chora tadbirlar yo'lga qo'yilganligi yuzasidan tegishli tushuntirishlarni berib o'tdi.

Yig'ilishda tadbirkorlik subektlarining bank muassasalari bilan o'zaro munosabatlarida ochiqlik, shaffoflik va qonuniylikni ta'minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish hamda moliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayonida asossiz to'siqlarga yo'l qo'ymaslik masalalari muhokama qilindi.

Ta'kidlandiki, kredit ajratish, hisob-raqamlar ochish, to'lovlarni amalga oshirish, kafolat va boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarida qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilinishi, ortiqcha hujjat talab qilish yoki noqonuniy shartlar qo'yilishiga yo'l qo'yilmasligi shart.

Shu bilan birga, tadbirkorlik sub'ektlari va bank xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuviga, noqonuniy moddiy yoki nomoddiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymaslik zarurligi alohida qayd etildi.

Korrupsiyaviy holatlar yoki noqonuniy talablar aniqlangan taqdirda, belgilangan tartibda vakolatli organlarga murojaat qilish hamda murojaatlarni ko'rib chiqishning shaffof mexanizmlaridan foydalanish tartibi tushuntirildi.

"O'zmilliybank" AJ Axborot va bank xavfsizligi departamentining 2026 yil 3 martdagi № 19-41-sonli xatingizga asosan bank tizimida axborot texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish va O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 35-moddasi talablarini qat'iy ijro etish xamda "O'zmilliybank" AJ Boshqaruvining 2025 yil 25 martdagi 49 sonli majlis bayoni "to'lov protsesing tizimlardamilliy valyutadagi bank kartalarini chiqarish hamda ushbu kartalaridan foydalanilgan xolda amaliyotlarni oshirish" tartibi xaqida tushunchalar berildi.

Shundan so'ng, "O'zmilliybank" AJ "Uchtepa" Bank xizmatlari markazi boshqaruvchi o'rinbosari T.Abdukarimov so'zga chiqib, bugungi yig'ilishga bank xizmatlari markazida xizmat ko'rsatilayotgan ko'zga ko'ringan tadbirkor va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar taklif etilganligi, bugungi yig'ilishdan maqsad joylarda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali tumandagi mavjud ishsizlarni ish bilan ta'minlash, bunda tadbirkor va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan mazkur masalani yo'lga qo'yilishida bugungi kundagi duch kelinayotgan muammo va to'siqlarni o'zaro xamkorlikda bartaraf etish ko'zda tutilayotganligini ma'lum qildi.

Uchrashuv davomida tadbirkorlarga kiberxavfsizlik masalalari yuzasidan tushuntirishlar berildi. Xususan, so'nggi paytlarda internet orqali sodir etilayotgan firibgarlik holatlari keskin oshib borayotgani, shu bois har bir tadbirkor o'zining shaxsiy ma'lumotlari, bank kartochkalari, mobil ilova parollari va bir martalik SMS-kodlarni hech kimga taqdim qilmasligi zarurligi alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, bank xodimi sifatida tanishtirib qo'ng'iroq qilayotgan yoki xabar yuborayotgan shaxslarga ishonmaslik, shubhali havolalar (ssilkalar) orqali ma'lumot kiritmaslik, mobil telefonga o'rnatilgan dasturlarni faqat rasmiy manbalar orqali yuklab olish kabi muhim talablar tushuntirib o'tildi.

Tadbirkorlarga o'z hisobvaraqlaridagi operatsiyalarni muntazam kuzatib borish, noaniq tranzaksiya aniqlangan taqdirda darhol bankka murojaat qilish lozimligi haqida ko'rsatmalar berildi. Kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish tadbirkorlik faoliyatidagi moliyaviy xatarlarni kamaytirishi va firibgarlik holatlarini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7 sentabrdagi "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-312-sonli va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14 fevraldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-sonli qaroriga asosan mavjud imtiyozlar to'g'risida batafsil tushuntirish berib hamda aholini tadbirkorlikga jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan "Sayxunobod" tajribasi misolida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha tadbirkorlarga ma'lumotlar berdi.

Sayyor qabulda 9 ta tadbirkor, ya'ni:

- " BEK LEADER " MCHJ
- " ALIQULOV BAXTIYOR GUZOR O'G'LI " YATT
- " ROADMAX" MCHJ
- " ABDULAZIZ STOM" MCHJ
- " ASURA TEX " OK
- " SUPER INNOVATION MARKET " MCHJ
- " FANDI FAMILY " OK
- " ULUG'BEKOV FAXRIDDIN ULUG'BEK O'G'LI" YATT
- " ESHONOV MUXIDDINXO'JA TO'LQIN O'G'LI" YATT
-

- Jumladan " FANDI FAMILY " OK O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14 fevraldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-sonli qaroriga asosan "O'zmilliybank" AJ Uchtepa BXMdan "Tikuvchilik faoliyatini rivojlantirish uchun xom-ashyo harid qilish" maqsadida 100 mln kredit ajratishda amaliy yordam so'rab murojat qildi,

"O'zmilliybank" AJ "Uchtepa" Bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi I.Yakubov mazkur masalalar yuzasidan mijozlarga tegishli tushuntirishlarni berib, "O'zmilliybank" AJ "Uchtepa" Bank xizmatlari markazi tomonidan kerakli hizmatlar tezkor fursatlarda ko'rib chiqilishini gapirib o'tdi.

Uchrashuv yakunida "O'zmilliybank" AJ "Uchtepa" Bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi I.Yakubov kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida bank tomonidan berilayotgan kreditlar, jumladan yangi ish o`rinlarini yaratishni rag`batlantiruvchi "Yangi ish o`rni" hamda tadbirkorlik faoliyatini boshlash va rivojlantirishni maqsad qiluvchi "Biznesga birinchi qadam" deb nomlangan yangi turdagi bank kredit maxsuloti ishlab chiqilganligini takidladi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalar muhokamasidan so'ng, bildirilgan taklif va muloxazalardan kelib chiqib yig'ilish:

QAROR QILADI:

1. Tadbirkorlar tomonidan ko'tarilgan masalalar ilovaga muvofiq ma'lumot uchun va ijro qabul qilinsin.

2. Mazkur uchrashuvda qatnashgan "O'zmilliybank" AJ Uchtepa bank xizmatlari markazining tadbirkorlari tomonidan ko'tarilgan masalalarni hal etish bo'yicha "O'zmilliybank" AJ Uchtepa bank xizmatlari markazi rahbari shaxsan mas'ul ekanligi belgilansin.

3. Mazkur uchrashuv bayoni ijrosini nazorat qilishni Uchtepa" Bank xizmatlari markazi boshqaruvchi o'rinbosari T.Abdukarimov zimmasiga yuklansin.

Bayonlashtiruvchi **N.Normatov**